

**AMUDARYO DARYOSI SUVIDAN FOYDALANISH MASALALARI
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

Shonazarov Jonibek Yomg'irovich

*“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti,
doktoranti*

jonibekshonazarov@gmail.com

Bobojonov Nurimon Shaxriyor-o'g'li

*“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti,
talabasi*

nurimonbobojonov@gmail.com

Maxmiyev Afro'zbek Dadaxon o'g'li

*“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti,
talabasi*

afruzmaxmiyev@gmail.com

Annotatsiya. *Amudaryo daryosi havzasining tabiiy sharoiti va geografik tavsifi, unda daryo havzasining geografik o'rni, geologik tuzilishi va relyefi, iqlim sharoiti, tuproq va o'simlik qoplami tabiiy va antropogen gidrografik tarmoqlari o'rganilgan. Amudaryo daryosining Qashqadaryo viloyati hududida suv resurslaridan foydalanish masalalariga bag'ishlangan. Amudaryo daryosi suvining Qashqadaryo viloyati tumanlari bo'yicha taqsimoti ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zan, irmoq, sug'orish, qayir, to'g'on, chakalakzor, antropogen, gidrografik.*

Abstract. *The natural conditions and geographical description of the Amudarya river basin, the geographical location of the river basin, geological structure and relief, climatic conditions, natural and anthropogenic hydrographic networks of soil and plant cover are studied. It is dedicated to the issues of using water resources in the territory of Kashkadarya region of the Amudarya river. The distribution of Amudarya river water by districts of Kashkadarya region was considered.*

Key words: *Stream, tributary, irrigation, dam, dam, thicket, anthropogenic, hydrographic.*

Абстрактный. *Изучены природные условия и географическое описание бассейна реки Амударья, географическое положение бассейна реки, геологическое строение и рельеф, климатические условия, природные и антропогенные гидрографические сети почвенного и растительного покрова. Он посвящен вопросам использования водных ресурсов на территории Кашкадарьинской области реки Амударьи. Рассмотрено распределение вод реки Амударьи по районам Кашкадарьинской области.*

Ключевые слова: *Ручей, приток, ирригация, плотина, плотина, заросли, антропогенный, гидрографический.*

KIRISH

Amudaryo hozirgi Tojikistonning Pomir tog'i etaklaridagi Panj va Vaxsh

daryolarining birlashuvidan boshlanib O‘zbekiston, Afg‘oniston va Turkmaniston hududlaridan o‘tadi va tobora qurib borayotgan Orol dengiziga quyiladi.

Asosiy qism. Amudaryo yuqori qismi Tojikiston va O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan chegarasidan oqadi, uzunligi 2540 km, havzasining maydoni qariyb 465 ming km², shundan 227,3 ming km² suv to‘playdigan tog‘li qismiga to‘g‘ri keladi. Amudaryo Afg‘onistonda Hindukush tog‘larining shimoliy yonbag‘ridan 4950 m balandlikdagi muzlikdan boshlanadi. Vohondaryo Pomirdagi Zo‘rko‘ chiqib keladigan Pomir daryosi bilan qo‘shilgandan keyin Panj deb ataladi. Panjga o‘ngdan G‘unt, Bartang, Yazg‘ulom, Vanj, Qizilsuv irmoqlari kelib qo‘shiladi, nihoyat, eng yirik va sersuv irmog‘i – Vaxsh daryosi qo‘shilgandan so‘ng Amudaryo nomini oladi. Bu qismida unga yana chapdan Qunduzdaryo, o‘ngdan Kofarnixon, Surxondaryo qo‘shiladi. Sherobodaryo suvi esa Amudaryoga ahyon-ahyonda yetib boradi, undan g‘arbdagi Ko‘hitangdaryo suvi ham yo‘l-yo‘lakay sug‘orishga sarf bo‘ladi. Surxondaryo quyilgandan keyin Amudaryoga to Orol dengiziga yetguncha 1200 kmdan ziyod masofada boshqa irmoq qo‘shilmaydi. Zarafshon bilan Qashqadaryo esa Amudaryoning qadimgi irmoqlari bo‘lib, ularning suvi butunlay sug‘orishga sarflanadi. Amudaryoning asosiy suv rejimi uning yuqori, tog‘li qismida shakllanadi. Bu joyda Amudaryo tor, ba‘zan chuqur va nishabi katta o‘zandan oqadi. O‘zan o‘rta hisobda har bir kmga 4 m dan (ayrim joylarda esa 10 m dan ham ko‘p) pasayib boradi. Shu tufayli daryo juda tez oqadi, oqimning tezligi 4-6 m³/sek. Daryo vodiysi ham tor, u Pomir tog‘ sistemasiga kiruvchi tik ko‘tarilgan qoyali tog‘larni aylanib o‘tadi. Tog‘ oralaridan jo‘shqin irmoqlar kelib qo‘shiladi. Vodiy eni 3-4 kmdan oshmaydi, ba‘zi joylardagina uchraydigan qayirlar ko‘pincha to‘qayzor.

Qashqadaryo viloyati tumanlari asosan Amudaryo suvi bilan sug‘oriladi. Amudaryodan olingan suv Tallimarjon suv omboriga 7 ta nasos kaskadi orqali quyiladi. Suv omborining maydoni 77,4 km kvadrat. Suv omborining uzunligi 14 km, kengligi 5,5 km. Sohil chizig‘ining uzunligi 36 km. O‘rtacha chuqurligi 19,8 metr. Suvning umumiy hajmi 1,53 milliard metr kub, foydalanish hududi 1,4 milliard metr kub. Gidrotexnika inshootlari majmuasiga ikkita sopol to‘g‘on, nasos stansiyasi, suv olish va chiqarish kanali, drenaj tizimi va nasos stansiyasi kiradi. Suv ombori kuzda to‘ldiriladi. Elektr nasoslari yordamida 26,6 m balandlikda suv ko‘tariladi. Suv omborida ikkita to‘g‘on inshooti mavjud. Sug‘orish mavsumida suv omboridan suv drenaj tizimi orqali Qarshi magistral kanaliga qaytariladi. Suv oqimi 360 m³/s.

Tallimarjon suv ombori dengiz sathidan 389 metr balandlikda joylashgan. Suv ombor 57 kvadrat kilometr maydonni egallaydi. Tallimarjon suv ombori deyarli chakalakzor bilan qoplangan. Shimoldan janubga 10,6 km, sharqdan g‘arbga 10,4 km.

Iqlimi quruq. O‘rtacha harorat 19 °C. Eng issiq oy iyul 34 °C, eng sovuq oy esa yanvar 0 °C. O‘rtacha yog‘ingarchilik yiliga 389 millimetрни tashkil qiladi. Eng yomg‘irli oy — mart, yomg‘ir 87 millimetr, eng quruq oy — iyul 1 millimetr tashkil etadi.

Suv ombori Talimarjon issiqlik elektr stansiyasiga ham xizmat qiladi, u bilan uzunligi 18 km va diametri 800-1020 mm bo‘lgan ikki liniyali o‘tkazgich ulangan. Tallimarjon suv ombori 1973-yildan buyon Qashqadaryo viloyatining 7 ta,



jumladan, Nishon, Qarshi, G‘uzor, Koson, Mirishkor, Muborak va Kasbi tumanlaridagi sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi maydonlarini yiliga 4-4,5 milliard metr kub miqdoridagi suv bilan ta‘minlab kelmoqda.

XULOSA.

O‘zbekiston daryolarida doimiy gidrologik kuzatishlar XIX asrning oxirlarida boshlangan. Masalan, Qoradaryoda Kuyganyor ko‘prigida 1883-yildan, Sirdaryoda, Xo‘jand yaqinida, 1895-yildan, Norin daryosida, Uchqo‘rg‘on yaqinida, 1896-yildan, Chirchiq daryosida, Chimboyliq yaqinida, 1900-yildan, Chinoz yaqinida, 1902-yildan boshlangan. Mamlakatimiz hududida gidrologik kuzatish tarmoqlari o‘tgan asrning birinchi choragidan boshlab, yanada jadal suratlarda rivojlana boshladi. Amudaryo daryosi sersuv bo‘lib, umumiy maydoni 465 ming km². Amudaryo daryosining yillik oqimini 100 % desak, shuning 65 % muz va qorlarning erishidan, 30 foizi qor suvlaridan va atiga 5 foizi yomg‘ir suvlaridan iborat. Demak, Amudaryo daryosining suvi ayni kun isigan yoz aslida (iyun-sentabr oylari), qishloq xo‘jalik ekinlari uchun suv kerak bo‘lgan davrda ko‘payadi. Bu oylarda Amudaryo daryosi yillik oqimining 61,1 foizini o‘tkazadi. Eng kam suv sarfi (30-35 m/sek) esa qish fasliga to‘g‘ri keladi. Aksincha, suvi eng ko‘paygan davr yozga to‘g‘ri kelib, iyulda ba‘zan sekundiga 165 kub metrni tashkil etadi. Amudaryo daryosi yozda loyqalanib oqqanligi sababli hududning sug‘oriladigan har gektar yeriga 10-20 tonnagacha loyqa keltiriladi. Amudaryo daryosi suv resurslaridan keng miqyosda foydalanish XX asrning 2 yarmidan sezilarli darajada kuchaya boshladi. Buning sababi shu davrda daryoning quyi oqimida sug‘oriladigan yerlar maydonining keskin kengaytirilishi, Samarqand, Navoiy kabi yirik shaharlarda sanoat korxonalari sonining ortib borishi, hududda aholi sonining tez sur‘atlarda o‘sishi bilan bog‘liqdir. Shu omillar ta‘siri natijasida Qashqadaryo vohasida daryo suvi uning quyi oqimi tomon ham miqdor, ham sifat jihatdan o‘zgara bordi. Bu jarayon hozirgi kunda yanada jadallashmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muradov R. A., Barnayeva M. A., Muzaffarov M. Preparation of the soil for washing irrigation //Economics and Society. – 2021. – Т. 3. – №. 2. – С. 178-182.
2. Муродов, Р. А., Барнаева, М. А., Ибодов, И. Н., & Ёкубов, Т. А. (2020). Динамика объемной влажности при послойно-поэтапном рыхлении на фоне горизонтального систематического дренажа. Экономика и социум, (11 (78)), 933-936.
3. Suyunov, J., & Bobomurodova, M. (2021). Purpose of floating structures for all types of water supplying structures. European Scholar Journal, 2(12), 126-129.
4. Shomurodov, A. A., Qurbonov, K., Ergashev, X. E., Baratov, D. D., & Qurbonov, S. (2023, February). Measures to reduce negative effects of waste using the Amu-Bukhara machine channel. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1138, No. 1, p. 012010). IOP Publishing.
5. Norkulov, B., Khujakulov, R., Kurbanov, I., Kurbanov, A., Jumaboyeva, G., & Kurbanov, A. (2023). Regime of deposition of sediments in the head settlement basin of the supply channel of pumping stations. In E3S Web of Conferences (Vol. 365, p. 03045). EDP Sciences.